

## SARATON (RAK) KASALLIKLARI HAQIDA

Kamola Alijonovna Yunusova

Toshkent tibbiyot akademiyasi katta o'qituvchisi.

Shahzod Sherzod o'g'li Rabbimqulov

Toshkent tibbiyot akademiyasi davolash fakulteti 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14048749>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada saraton butun dunyo bo'ylab kasallanish va o'limning asosiy sabablaridan biridir va bu holatlar bir-biri bilan tubdan bog'liq ekanligi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Saraton, yomon sifatli o'sma, destruksiya, kompressiya, intoksikatsiya, o'smasimon hosilalar.

## ABOUT CANCER DISEASES

**Abstract.** This article states that cancer is one of the main causes of morbidity and mortality worldwide, and that these conditions are largely related to each other.

**Key words:** cancer, malignant tumor, destruction, compression, intoxication, tumor formations.

## О РАКОВЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ

**Аннотация.** В этой статье говорится, что рак является одной из основных причин заболеваемости и смертности во всем мире, и что эти состояния в значительной степени связаны друг с другом.

**Ключевые слова:** рак, злокачественная опухоль, деструкция, компрессия, интоксикация, опухолевые образования.

Saraton – organizmdagi har qanday a'zo va to'qimalarni zararlashi mumkin bo'lgan kasallikni anglatuvchi umumiy atama hisoblanadi. Namoyon bo'ladigan saraton belgilari ham qaysi a'zo va to'qimani zararlaganiga ko'ra turli xildir.

Saraton atamasiga sinonim bo'lgan tibbiy atama – bu “yomon sifatli o'sma”dir. Bu holat patologiyasida hujayralar DNKsida o'zgarish ro'y berishi va biologik informatsiyaning buzilishi, natijasida hujayralarning tartibsiz bo'linib ko'payishi va to'qimalar hosil bo'lishi, ya'ni o'sma o'sishi bilan namoyon bo'ladi.

Yomon sifatli o'sma – bu hujayralarning avtonom ravishda tartibsiz bo'linib ko'payishi natijasida qo'shni to'qimalarga o'sib kirish xususiyatiga ega bo'lgan hosiladir. O'sma o'zida hujayralar saqlashi bilan birgalikda qon tomirlar va maxsus qobiqqa ham ega bo'ladi. Har qanday o'sma uni tashkil etuvchi hujayralar tipiga qarab, ya'ni gistologik tuzilishiga asosan klassifikatsiyalanadi:

1. Saraton yoki karsinoma – epiteliy to'qimasidan;
2. Sarkoma – yog', biriktiruvchi, suyak, mushak, limfa hamda qon tomirlaridan o'sgan hosila;
3. Leykoz – qon yaratuvchi hujayralardan o'suvchi;
4. Miyeloma – suyak ko'migidan o'suvchi;
5. Limfoma – limfa to'qimalaridan o'suvchi.
6. Asosiy patologik o'smalar – saraton yoki karsinomaga to'g'ri keladi.

Yomon sifatli o'sma ikki bosqichda rivojlanadi: klinikagacha bo'lgan davr hamda klinik belgilar yuzaga chiqish davri. Kasallikning asosiy kechishi klinik belgilargacha davrda bo'ladi.

Bunda bemorni hech qanday simptomlar bezovta qilmaydi.

Saraton belgilari turlicha namoyon bo'ladi, ayrim kasallikda ham yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan belgilar saraton hosil bo'lishidan ham darak berishi mumkin. Ammo, aynan saraton kasalligiga xos bo'lgan ayrim belgilar mavjud, ular quyidagilar: obturatsiya, destruksiya, kompressiya, intoksikatsiya, o'sma o'sishi.

**Obturatsiya.** Bu holat kovak a'zolar bo'shlig'iga o'smaning o'sishi natijasida kovak a'zolarida berkilish ya'ni tutilish belgilari namoyon bo'lishi bilan o'ziga xosdir. Obturatsiya belgilari turli a'zolarida turlicha kechadi:

- Qizilo'ngachda obturatsiya bo'lishi – yutinish qiyinlashuvi;
- Yo'g'on ichak chap yonbosh sohasi qismlarida o'sma bo'lishi – ich kelishining buzilishi, qorin dam bo'lishi, qorinda spazmatik og'riqlar bo'lishi, ko'ngil aynish belgilari;
- Oshqozonning o'n ikki barmoq ichakka o'tish sohasida o'sma hosil bo'lishi – ovqatlangandan keyin oshqozonda og'irlik hissi bo'lishi, spazmatik og'riqlar, ko'ngil aynishi kabi belgilar;
- Siydik ayiruv a'zolari ichida o'sma o'sishi – o'tkir peshob tutilishiga olib keladi;
- O't yo'llarida yoki o't qopida o'sma bo'lishi – o't dimlanishi va mexanik sariqlikka sabab bo'ladi.

Kovak a'zolarida o'sma hosil bo'lishida yuzaga keladigan belgilar sekin astalik bilan rivojlanib boradi. Ayrim holatlarda o'smaning parchalanishi natijasida obturatsiya belgilari kamayishi ham mumkin, ammo uning asorati jiddiy oqibatlariga olib keladi.

**Destruksiya.** A'zoning parchalanishi o'sma to'qimasining a'zo ichiga o'sib kirishi natijasida ro'y beradi. Saratonning a'zo ichiga o'sib kirishi va biror bir mexanik ta'sir oqibatida o'smani qon bilan ta'minlovchi tomirlar yoriladi va qon ketish ro'y beradi. Bu holat esa anemiyaga sabab bo'ladi va quyidagi belgilar bilan namoyon bo'ladi:

- Teri qoplamasining rangpar bo'lishi;
- Bosh aylanishi;
- Arterial bosimning pasayishi;
- Pulsning ipsimon bo'lishi;
- Yurak tonlari bo'g'iqlashuvi. Destruksiya belgilari quyidagilardir:
- To'g'ri ichak va yo'g'on ichakda o'sma o'sishi ich kelganda qon kelishi;
- Qizilo'ngach va oshqozondagi o'smadan qon ketganda qusuq massasida qon hujayralari aniqlanishi;
- O'pkada o'smadan qon ketishi balg'amda qon ajralishi;
- Bachadonda o'smadan qon ketishi qindan qonli ajralamlar kelishi;
- Siydik qopidagi o'smadan qon ketishi esa peshobda qon kelishi bilan o'ziga xosdir.

**Kompressiya.** Saraton to'qimalarining a'zodan o'tuvchi nerv tolasi, qon tomirlarini ezib qo'yishi bilan kechadigan holat. Ikki xil patologiya bilan namoyon bo'ladi:

- Og'riq;
- A'zo ish faoliyatining buzilishi.

O'smaning a'zolari ezib qo'yishi natijasida nerv tolalari ham siqiladi bu esa og'riq hissini tug'diradi. Og'riq boshlanishi o'sma o'lchami katta bo'lganda boshlanadi. Avvaliga og'riq kuchi bo'lmaydi, simillovchi, to'mtoq xarakterda, keyinchalik esa kuchayib boradi va oxir oqibat chidab bo'lmas darajada og'riq hissi seziladi. Turli a'zolarida og'riq xususiyati ham turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- Buyrak, oshqozon, jigar, oshqozon osti bezi, suyak sarkomasida og'riq sindromi kasallikning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi;

- Qizilo'ngach va o'pkalarda hosil bo'lgan saraton kuchsiz bo'lgan og'riq bilan namoyon bo'ladi;

- Tashqi a'zoldagi o'smalar esa og'riq sindromisiz kechadi.

**Intoksikatsiya.** Saraton natijasida organizmda moddalar almashinuvi buzilishi ham kuzatiladi – oqsil, uglevod, yog' va mineral tuzlar almashinuvi izdan chiqadi. Bu esa ishtahaning pasayishi, ozib ketish, umumiy holsizlik belgilari bilan namoyon bo'ladi. Saratonning toksik xususiyati ko'pincha jigar, oshqozon osti bezi, oshqozon o'smalarida kuchli namoyon bo'ladi, boshqacha qilib aytganda hazm qilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan a'zolar tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir etadi.

Oshqozonda paydo bo'lgan o'sma intoksikatsiya belgilari bosqichma bosqich kuchayib boradi. Avvaliga ishtaha pasayishi, ozib ketish, keyinchalik esa hazm jarayoning buzilishi, ovqatlanmandan so'ng oshqozon sohasida noqulaylik sezish, ovqatlanishdan butkul bosh tortish kabi holatlar ham yuzaga keladi.

**O'smasimon hosilalar.** O'smaning ko'rinishi yoki qo'l bilan palpatsiya qilinganda sezilishi onkologik jarayon boshlanganidan darak beradi. Lab va terida hosil bo'ladigan o'sma tubi bo'ladi va mexanik ta'sir natijasida qonaydi. Ko'krak bezida esa yumaloq shakldagi qattiq hosil aniqlanadi. Odatda o'sma harakatchan bo'ladi, yon atrof to'qimalari bilan birgalikda harakatlanadi, agar o'sma a'zo ichiga o'sib kirgan bo'lsa yoki suyaklarda hosil bo'lsa harakatlanmaydi.

Xalqaro ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan o'tkazilgan laboratoriya tahlilari asosida shu narsa aniq bo'ldiki, saraton kasalligiga olib keluvchi sabablardan biri bu organizmda kislorod yetishmasligidir.

## REFERENCES

1. Samieva G. U., Abdirashidova G. A., Sobirova Sh B. Prognostic value of cytokine spectrum and their changes in primary and recurrent laryngotracheitis in children Innovative research: problems of implementation of results and directions of development. – 2017.
2. Самиева Гульноза, Абдирашидова Гульноза, Курбанов Голиб Патогенетические аспекты эндогенной интоксикации и ее влияние на течение различных форм стенотического ларинготрахеита у детей Обзорение европейской науки. 2018.
3. Utkurovna S. G., Bahtiyarovna S. S., Gulnoz A. Integrated Approaches to The Diagnosis, Treatment, And Prevention of Stenosing Laryngotracheitis In Children European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020.